



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI Demografik holat

2020- yil yanvar - dekabr

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Navoiy viloyati doimiy aholisi soni 2020- yil 1- yanvar holatiga 1013,8 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 16,7 ming kishiga yoki 1,7 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 495,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 518,1 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020- yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **16,7 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **23,8 ming nafarni** tashkil etdi.
- **5,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **9,1 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020- yil yanvar-dekabr oylarida)



2020- yil
yanvar - dekabr


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, **2021- yil 1- yanvar** holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 201,9 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 19,9 %) va Qiziltepa tumanida 153,9 ming kishini yoki (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 15,1 ming kishini yoki jami viloyat aholisining (1,5 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati **2019- yilning yanvar - dekabr**ga nisbatan Karmana tumanida 102,1 % ni, Navoiy shahrida 101,9 % ni, Konimex va Navbahor tumanlarida 101,7 % ni, Tomdi tumanida 101,6 % ni, Xatirchi va Qiziltepa tumanlarida 100,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




**Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.
(2021- yil 1- yanvar holatiga)**

	<i>Jami aholi</i>	<i>Erkaklar</i>	<i>Ayollar</i>	<i>Shahar aholisi</i>	<i>Qishloq aholisi</i>	<i>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</i>
Viloyat bo'yicha:	1 013 813	513 906	499 907	495 716	518 097	9,1
<i>shaharlar:</i>						
Navoiy	146 970	74 020	72 950	146 970	-	2450
Zarafshon	85 137	44 573	40 564	85 137	-	4255
Gazg'on	7 347	3 990	3 357	7 347	-	12,4
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	128 225	63 559	64 666	42 431	85 794	136,4
Konimex	36 179	19 080	17 099	16 470	19 709	3,9
Qiziltepa	153 939	77 754	76 185	48 704	105 235	70,3
Navbahor	114 681	58 072	56 609	16 447	98 234	73,0
Nurota	86 656	44463	42193	48380	38276	14,6
Tomdi	15 136	7 703	7 433	4 802	10 334	0,4
Uchquduq	37 689	18 682	19 007	33 047	4 642	0,8
Xatirchi	201 854	102 010	99 844	45 981	155 873	142,2

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- yanvar holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Nurota hamda Qiziltepa tumanlarida 9,8 % ni, Xatirchi tumanida 9,3 % ni, Karmana tumanida 8,6 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex hamda Navbahor tumanlarida 3,3 % ni va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etdi.


Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi sonining ulushi (2021- yil 1- yanvar holatiga, foizda)



Aholing tabiiy harakati
2020- yil yanvar - dekabr holatiga


	2019- yil kishida	2020- yil kishida	o`shish, kamayish	2019- yil har ming kishiga	2020- yil har ming kishiga
<i>Tug`ilganlar</i>	22 770	23 827	1 057	23,0	23,7
<i>O`lganlar</i>	4 378	5 038	660	4,4	5,0
<i>Tabiiy o`shish</i>	18 392	18 789	397	18,6	18,7
<i>Nikohlar</i>	8 939	9 105	166	9,0	9,1
<i>Ajralishlar</i>	942	931	-11	1,0	0,9

2020- yil yanvar - dekabr holatiga aholining tabiiy harakati, birlikda



Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 23 827 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), o'tgan yilga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,7 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega oshgan (2019- yilning yanvar-dekabr oylarida 23,0 promille bo'lgan).

Navoiy viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar - dekabr) yillar, ming kishi




Tug'ilganlar 2020- yil yanvar-dekabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2019- yil promilleda	2020- yil	2020- yil promilleda
Navoiy viloyati	22 770	23,0	23 827	23,7
Navoiy sh.	2 950	20,6	3 327	22,9
Zarafshon sh.	1 804	21,7	1 975	23,4
Gazg'on sh			129	17,7
Karmana t.	3 265	26,4	3 179	25,1
Konimex t.	780	22,1	796	22,2
Qiziltepa t.	3 160	21,0	3 297	21,6
Navbahor t.	2 504	22,4	2 517	22,1
Nurota t.	2 213	26,2	2 204	25,6
Tomdi t.	192	13,2	234	15,7
Uchquduq t.	898	24,1	960	25,6
Xatirchi t.	5 004	25,4	5 209	26,0

Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 5 038 ta o`lim qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o`lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kopayganligi (2019- yilning yanvar - dekabr oylarida 4,4 promille bo`lgan) kuzatildi.

Navoiy viloyati bo`yicha vafot etganlar soni (yanvar - dekabr) yillar, ming kishi




Vafot etganlar 2020- yil yanvar-dekabr holatiga, (kishida)

	2019- yil	2019- yil promilleda	2020- yil	2020- yil promilleda
Navoiy viloyati	4 378	4,4	5 038	5,0
Navoiy sh.	652	4,6	792	5,4
Zarafshon sh.	287	3,5	355	4,2
Gazg'on sh	-	-	21	2,9
Karmana t.	646	5,2	684	5,4
Konimex t.	184	5,2	217	6,0
Qiziltepa t.	595	4,0	799	5,2
Navbahor t.	503	4,5	540	4,7
Nurota t.	469	5,5	461	5,4
Tomdi t.	47	3,2	61	4,1
Uchquduq t.	144	3,9	192	5,1
Xatirchi t.	851	4,3	916	4,6

Nikoh. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 9 105 nafar nikoh qayd etilgan bo`lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,1 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi. (2019- yilning yanvar - dekabr oylarida 9,0 promille bo`lgan).




Tuzilgan nikohlar 2020- yil yanvar - dekabr holatiga, (kishida)



Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar - mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 931 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo`lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar - dekabr oylarida 1,0 promille bo`lgan).



Nikohdan ajralganlar 2020- yil yanvar - dekabr holatiga, (kishida)



MIGRATSIYA

2020-yil yanvar - dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8 250 kishini tashkil etdgan bo'lib 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti 8,2 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan minus 2,5 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar - dekabr oylarida 10,7 promille bo'lgan).


2020- yil yanvar - dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 10 326 kishini tashkil etdgan bo'lib 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti 10,3 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan minus 1,3 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar - dekabr oylarida 11,5 promille bo'lgan).

Migratsiya saldosi minus 2 076 kishi bo'lib, 2019- yilning o'tgan shu davrida minus 828 kishi bo'lgan.




	2019- yil yanvar - dekabr	2020- yil yanvar - dekabr
<i>Ko'chib kelganlar</i>	10 540	8 250
<i>Ko'chib ketganlar</i>	11 368	10 326
<i>Migratsiya saldosi</i>	-828	-2 076

Ko'chib kelganlar yanvar - dekabr holatiga, (kishida, % da)



Ko'chib ketganlar yanvar - dekabr holatiga, (kishida, % da)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel.:(79) 223-07-41